



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yil uchun Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 80 658,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yil bilan taqqoslaganda 6,5 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023- yilga nisbatan 110,3 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 5,5 % ga yetdi.

## 2024- yil uchun Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi

**2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha  
YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari**

	<i>Mird. so‘m</i>		<i>O‘sish sur’atlari, o’tgan yilga nisbatan % da</i>
	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil</i>	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>68 648,6</b>	<b>80 658,3</b>	<b>106,5</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo’shilgan qiymati	66 504,8	78 033,6	106,5
mahsulotlarga sof soliqlar	2 143,8	2 624,7	106,7
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo’shilgan qiymati</b>	<b>66 504,8</b>	<b>78 033,6</b>	<b>106,5</b>
<i>qishloq, o’rmon va baliqchilik xo’jaligi</i>	<b>23 010,4</b>	<b>25 483,0</b>	<b>104,2</b>
<b>sanoat (qurilishni qo’shgan holda)</b>	<b>16 551,5</b>	<b>20 032,9</b>	<b>109,4</b>
sanoat	11 139,8	13 776,4	108,0
qurilish	5 411,7	6 256,5	112,1
<b>xizmatlar</b>	<b>26 942,9</b>	<b>32 517,7</b>	<b>106,8</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	10 469,1	12 937,2	110,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3 358,6	4 094,2	110,7
boshqa xizmat tarmoqlari	13 115,2	15 486,3	102,9



Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 22 405,1 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 4,2 % ga yuqoridir.

## 2023-2024-yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so‘mda)



## 2023-2024-yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari (o‘tgan yilga nisbatan % hisobida)



**2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)**

	<b>2023- yil</b>	<b>2024- yil</b>
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,9	96,7
mahsulotlarga sof soliqlar	3,1	3,3
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	34,6	32,7
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>24,9</b>	<b>25,7</b>
sanoat	16,8	17,7
qurilish	8,1	8,0
<b>xizmatlar</b>	<b>40,5</b>	<b>41,6</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	15,7	16,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,1	5,2
boshqa xizmat tarmoqlari	19,7	19,8



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

5

2024- yil uchun hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 96,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,3 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHM ning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 32,7 % ni, sanoat tarmogi 17,7 % ni, qurilish 8,0 % ni va xizmatlar sohasi 41,6 % ni tashkil qildi.

## 2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

**2023- yil**



**34,6%**

**Qishloq, o'rmon va  
baliqchilik xo'jaligi**

**3,1 %**

**16,8%**

**Sanoat**

**8,1%**

**Qurilish**

**40,5%**

**Xizmatlar**

**2024- yil**

**Qishloq, o'rmon va  
baliqchilik xo'jaligi**

**32,7%**

**3,3 %**

**Sanoat**

**17,7%**

**Qurilish**

**8,0%**

**Xizmatlar**

**41,6%**



**Yalpi qo'shilgan qiymat**

**Mahsulotlarga sof soliqlar**

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,4 f.p. (2023-yilda – 1,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,3 f.p. (2023-yilda – 1,2 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,0 f.p. (2023-yilda – 0,7 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,6 f.p. (2023-yilda – 1,9 f.p.) ijobjiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2023-yilda – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

## 2024- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)

### YAHM



### Sanoat



### Xizmatlar



6,5 %

1,3 %

2,6 %

1,4 %

1,0 %

0,2 %

### Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



### Qurilish



### Mahsulotlarga sof soliqlar




2024- yil uchun YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,2 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 32,7 %), sanoatda – 108,0 % (17,7 %), qurilishda – 112,1 % (8,0 %), xizmatlar sohasida – 106,8 % ni (41,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,4 % (16,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 110,7 % (5,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,9 % dan (19,8 %) iborat bo'ldi.

**2023-2024- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilga nisbatan % da)**


2023- y.

2024- y.



2024- yilda YAHM deflyatori indeksi 2023- yildagi narxlarga nisbatan 110,3 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 114,5 % va xizmatlar sohasida – 113,0 % qayd etildi.

**2023-2024- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi**  
(o'tgan yilga nisbatan % da)



2024- yil uchun kichik tadbirkorlik 55 378,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2023- yilda – 46 886,0 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 71,0 % ni (2023- yilda – 70,5 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan o‘sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog‘liq.

## 2023-2024- yillar uchun kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

